

YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 18 (1079), 2024-yil 25-yanvar, payshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news




yuz



O‘ZBEKISTON — XITOIY: STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH YO‘LIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA SAMARALI MULOQOTLAR

24-yanvar kuni Pekin shahri Tyananmen maydonidagi Xalq yig‘inlari uyida davlat tashrifi bilan Xitoyda bo‘lib turgan O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni rasmiy kutib olish marosimi bo‘ldi.



Davlatimiz rahbari sharafiga faxriy qorovul saf tortdi.

Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevni kutib oldi.

Yetakchilar ikki mamlakat rasmiy delegatsiyalari a‘zolarini qutladilar.

gani, mamlakatlarimiz muhim masalalar yuzasidan bir-birini qo‘llab-quvvatlayotgani alohida mamnuniyat bilan qayd etildi.

O‘tgan yil noyabr oyida Pekin shahrida Tashqi ishlar vazirlari strategik muloqotining birinchi yig‘ilishi bo‘lib o‘tdi. Parlamentlararo hamkorlik faollashdi.

Infratuzilma, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo‘jaligi va “yashil” energetikada texnologiyalar transferi sohalarida hamkorlik dasturlarini tayyorlash va qabul qilishga kelishib olindi.

Shu ma‘noda, o‘tgan yil oxirida O‘zbekistonda Xitoy kompaniyalari ishtiroki-

Yetakchilar hududlararo almashinuvlar faollashganiga mamnuniyat bildirdilar. Bu boradagi hamkorlikni muvofiqlashtirish uchun O‘zbekiston va Xitoy hududlari kengashini tuzishga kelishib oldilar.

“Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi doirasida Transmintaqaviy transport va tranzit ko‘prigining muhim tarkibiy qismi bo‘ladigan “Xitoy — Qirg‘iziston — O‘zbekiston” temir yo‘lini qurish bo‘yicha amaliy ishlarni tez fursatda boshlash muhim ekani ta‘kidlandi.

Kuni kecha Pekinda birinchi ta‘lim forumi, Shanxayda O‘zbekistonning turizm imkoniyatlari ko‘rgazmasi muvaffaqiyatli o‘tgan qayd etildi. Shu kunlarda o‘tayotgan O‘zbekiston madaniyati kunlari doirasidagi tadbirlar Xitoy poytaxti aholisi va mehmonlarida katta qiziqish uyg‘otdi.

Ta‘lim va turizm sohasidagi hamkorlikni faollashtirish, o‘zaro madaniyat kunlarini o‘tkazish amaliyotini davom ettirish zarurligi ko‘rsatib o‘tildi. Qo‘shma Yoshlar innovatsiya forumini o‘tkazish taklif qilindi.

Rejalashtirilgan barcha tadbirlar va ilgari surilgan tashabbuslarni amalga oshirish maqsadida tomonlar Hukumatlararo qo‘mita va uning barcha kichik qo‘mitalari yig‘ilishlarini joriy yilning birinchi yarmida o‘tkazishga ahdlashib oldi.

Mintaqaviy kun tartibi va xalqaro siyosatning dolzarb masalalari yuzasidan ham fikr almashildi.

“Yagona Xitoy” siyosati hamda “uch yovuz kuch”ga qarshi kurashish borasidagi pozitsiya o‘zgarmasi ekanini tasdiqlandi.

Yetakchilar huzurida quyidagilar imzolandi:

— O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida texnik-iqtisodiy hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida inson resurslarini rivojlantirish bo‘yicha hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Hukumati va Xitoy Xalq Respublikasi Hukumati o‘rtasida davlat ilmiy-tadqiqot muassasalari hamkorligi to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Ta‘lim vazirligi o‘rtasida xitoy tilini o‘qitish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bitim;

— O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Bojxona bosh boshqarmasi o‘rtasida O‘zbekistondan Xitoyga no‘xat eksport qilishda fitosanitar talablar va nazorat to‘g‘risida bayonnomasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Islohotlar va rivojlanish davlat qo‘mitasi o‘rtasida Xitoy — Markaziy Osiyo — Yevropa temir yo‘l ekspreslari bo‘yicha hamkorlikni chuqurlashtirish to‘g‘risida bayonnomasi;

ma‘muriyati o‘rtasida standartlashtirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida bayonnomasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi va Xitoy fuqarolik aviatsiyasi boshqarmasi o‘rtasida “Havo ipak yo‘li”ni birgalikda barpo etish to‘g‘risida kelishuv;

— O‘zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o‘zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo‘mitasi va Xitoy Xalq Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi o‘rtasida 2024-2026-yillarda turizm sohasidagi hamkorlik rejasini;

— Toshkent viloyati va Shensi muzofoti o‘rtasida sheriklik aloqalarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim;


— Samarqand va Sindao shaharlari o‘rtasida sheriklik munosabatlarini o‘rnatish to‘g‘risida bitim va boshqalar.

Shu kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoy Xalq Respublikasi Davlat kengashi Bosh vaziri Li Syan bilan uchrashdi.

Xalq yig‘inlari uyida o‘tgan uchrashuvda ko‘p qirrali amaliy hamkorlikni, eng avvalo, savdo-iqtisodiy sohada yanada kengaytirish masalalari ko‘rib chiqildi.

XXR hukumati rahbari ikki mamlakat yetakchilarining siyosiy irodasi va birgalikdagi sa‘y-harakatlari tufayli O‘zbekiston — Xitoy munosabatlari barcha soha va yo‘nalishlarda misli ko‘rilmagan darajaga ko‘tarilganini qayd etdi.

O‘tgan yilda tovar ayirboshlash 50 foizga oshib, rekord ko‘rsatkich — 14 milliard dollarga yetdi. Bu ko‘rsatkichni, shu



Harbiy orkestr ijrosida O‘zbekiston va Xitoy madhiyalari yangradi.

Faxriy qorovul boshlig‘i Prezidentimizga raport berdi. Davlat rahbarlari faxriy qorovul safi oldidan o‘tdilar.

Shundan so‘ng Pekin shahrida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpinning rasmiy delegatsiyalar a‘zolari ishtirokidagi muzokaralari bo‘lib o‘tdi.

Uchrashuv avvalida Prezidentimiz Xitoy yetakchisiga tashrif bilan kelish taklifi va ko‘rsatilayotgan iliq mehmondo‘stlik hamda Yangi O‘zbekistondagi islohotlarning yuksak e‘tirofi uchun samimiy minnatdorlik bildirdi.

Davlat rahbarlari keyingi yillarda ikki tomonlama munosabatlar rivojida kuchli sur‘atga erishilganini ta‘kidladilar.

Barcha darajalarda aloqalar faollashib, siyosiy muloqot mustahkamlanib borayot-

Prezidentimiz XRR Raisiga kambag‘alikka qarshi kurashish bo‘yicha hamkorlikka shaxsan e‘tibor qaratayotgani va qo‘llab-quvvatlayotgani uchun tashakkur bildirdi.

Tomonlar O‘zbekistonda Xitoyning “Lu Ban ustaxonasi” professional ta‘lim tizimini joriy qilish bo‘yicha pilot loyiha boshlanganini olqishladilar.

Savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlik jadal rivojlanmoqda.

O‘tgan yil yakunlari bo‘yicha tovar ayirboshlash 14 milliard dollarga yetdi. Yaqin istiqbolda buni 20 milliard dollarga yetkazish uchun barcha imkoniyatlar borligi to‘g‘risida yakdil fikr bildirildi.


Keyingi yillarda Xitoydan O‘zbekiston iqtisodiyotiga investitsiyalar hajmi besh barobar, qo‘shma korxonalar soni esa uch barobar oshdi.

da quvvati 1000 megavattlik ikkita yangi quyosh elektr stansiyalari foydalanishga topshirilgani mamnuniyat bilan qayd etildi.

Xitoyning yetakchi banklari, “Ipak yo‘li” fondi va Osiyo infratuzilmaviy investitsiyalar banki bilan samarali moliyaviy-texnik hamkorlikning bugungi darajasi yuqori baholandi.

Davlatimiz rahbari investitsiya loyihalarini qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy vositalarini kengaytirish, jumladan, qo‘shma platforma yaratish borasida kelishuvlarga erishilganini, shuningdek, Xitoy Eksimbankining Toshkent shahrida Markaziy Osiyo uchun mintaqaviy ofis ochish qarorini olqishladi.

Prezidentimiz xitoylik sheriklarni O‘zbekistondagi davlat korxonalarini va banklarini xususiy lashtirish jarayonlarida faol ishtirok etishga chaqirdi.



Muzokaralar yakunida O‘zbekiston yetakchisi XRR rahbarini tashrif bilan mamlakatimizga kelishga taklif qildi hamda do‘st Xitoy xalqini yaqinlashib kelayotgan xitoycha Yangi yil — “Chun Sze” bayrami bilan tabrikladi.

Uchrashuv har doimgidek ishonch, ochiqlik va do‘stlik ruhida o‘tdi.

Oliy darajadagi muzokaralardan so‘ng ikki tomonlama hujjatlarini imzolash marosimi bo‘lib o‘tdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Xitoy Xalq Respublikasi Raisi Si Szinpin Qo‘shma bayonot imzoladilar.

Unda tomonlarning o‘zaro manfaatli hamkorlikni turli sohalarida har tomonlama mustahkamlash hamda O‘zbekiston bilan Xitoy o‘rtasidagi barcha sharoitlarda har tomonlama strategik sheriklikni mazmun jihatidan boyitishga intilishi tasdiqlangan.

— O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Tijorat vazirligi o‘rtasida yangi elektr transport vositalari sohasidagi hamkorlikni rivojlantirish to‘g‘risida bayonnomasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Kambag‘allikni qisqartirish va bandlik vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Qishloq xo‘jaligi va qishloq masalalari vazirligi o‘rtasida kambag‘allikni qisqartirish sohasidagi hamkorlik to‘g‘risida ahdlashuv bayonnomasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligi va Xitoy Xalq Respublikasi Fan va texnologiyalar vazirligi o‘rtasida ilmiy-texnik hamkorlikni yanada mustahkamlash to‘g‘risida hamkorlik bayonnomasi;

— O‘zbekiston Respublikasi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi va Xitoy Xalq Respublikasi Standartlashtirish

jumladan, yuqori sifatli sanoat va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini o‘zaro yetkazib berishni ko‘paytirish hisobiga 20 milliard dollarga yetkazish uchun salohiyat mavjudligi ta‘kidlandi. Xitoydan O‘zbekiston iqtisodiyotiga kiritilgan investitsiyalarning umumiy hajmi 14 milliard dollardan oshdi.

Infratuzilmani modernizatsiya qilish, sanoat kooperatsiyasini, qishloq xo‘jaligida texnologiyalar transferini kengaytirish va “yashil” energetikani rivojlantirish bo‘yicha alohida hamkorlik dasturlarini tayyorlash masalalari muhokama qilindi.

Shuningdek, Xitoyning yetakchi bank-moliya institutlari bilan amaliy hamkorlikni chuqurlashtirish hamda Xitoy kompaniyalarining mamlakatimizdagi xususiy lashtirish jarayonlarida ishtirok etishi istiqbollari ko‘rib chiqildi.



O'ZBEKISTON — XITOIY: STRATEGIK SHERIKLIKNI KENGAYTIRISH YO'LIDAGI MUHIM TASHABBUSLAR VA SAMARALI MULOQOTLAR

Boshlanishi 1-betda

22-yanvar kuni Urumchi shahrida o'tgan birinchi O'zbekiston — Xitoy hududlar forumi va sanoat ko'rgazmasi natijalari yuqori baholandi.

Xitoyda shu kunlarda ta'lim forumi va O'zbekiston madaniyati kunlari muvaffaqiyatli o'tkazilayotgani qayd etildi. Tomonlar aviaqatnovlar va sayyohlik al-mashinuvini yanada kengaytirish muhimligini ta'kidladilar.

Yakunda Prezidentimiz XRR Davlat kengashi Bosh vazirini tashrif bilan O'zbekistonga kelishga taklif qildi.

Shuningdek, davlatimiz rahbari Xalq siyosiy maslahat kengashi Butunxitoy qo'mitasi Raisi Chjao Leszi bilan uchrashuv o'tkazdi.

Suhbatda O'zbekiston — Xitoy munosabatlarida yuksak darajaga erishilgani mamnuniyat bilan qayd etilib, bu galgi tashrif har tomonlama strategik sheriklikni kengaytirishga yangi kuchli sur'at bag'ishlashiga ishonch bildirildi.

Keyingi yillarda o'zaro savdo hajmi ikki barobar, qo'shma korxonalar soni uch barobar oshdi.

Hududlararo kooperatsiya kengaydi, 22-yanvar kuni Urumchi shahrida bo'lib o'tgan birinchi O'zbekiston — Xitoy hududlar forumining samarali natijalari bundan dalolat bermoqda.

Xitoyning kambag'allikka qarshi kurashish borasidagi tajribasi faol joriy qilinmoqda.

Uchrashuvda mamlakatimiz texnik yo'nalishlar bo'yicha mutaxassislar tayyor-

lash markazlarini tashkil etish, Xitoyning ijtimoiy himoya va sug'urta, aholiga manzilli yordam ko'rsatish borasidagi tajribasini o'rganishdan manfaatdor ekan ta'kidlandi.

Parlamentlar o'rtasidagi muloqotni kengaytirish va "O'zbekiston — Xitoy" do'slik guruhlarini faollashtirish zarurligi qayd etildi.

Oliy darajadagi kelishuvlarning amalga oshirilishi ustidan ta'sirchan parlament nazoratini ta'minlashga alohida e'tibor qaratildi.

Madaniy-gumanitar aloqalarni mustahkamlash masalalari yuzasidan fikr almashildi.

O'tgan yili O'zbekistonda Xitoy madaniyati kunlari o'tkazilgani, ayni paytda Pekinda O'zbekiston madaniyati kunlari doirasida o'tayotgan tadbirlar mamnuniyat bilan qayd etildi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Pekin shahridagi Tyananmen maydoniga tashrif buyurdi.

O'zbekiston va XRR davlat madhiyalari yangradi. Davlatimiz rahbari Xalq qahramonlari yodgorligi poyiga gulchambar qo'yib, XIX-XX asrlarda Xitoy mustaqilligi va ozodligi yo'lida qurbon bo'lganlarning xotirasiga hurmat bajo keltirdi.

Tyananmen maydoni xitoy millatining ramziy yuragi hisoblanadi.

1949-yil 1-oktabr kuni aynan shu yerdagi Xitoy Xalq Respublikasi tashkil etilgani e'lon qilingan. Xalq qahramonlari yodgorligi XX asrning o'rtalarida bunyod etilgan.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Xitoyga davlat tashrifining ishbilarmonlik tadbirlari doirasida Osiyo infratuzilmaviy inves-

tsiyalar banki bosh qarorgohiga tashrif buyurib, bank prezidenti Szin Lisyun bilan muzokara o'tkazdi.

Ushbu yetakchi xalqaro moliyaviy institut bilan strategik sheriklikni yanada kengaytirishning dolzarb masalalari ko'rib chiqildi.

Keyingi yillarda bank bilan hamkorlik misli ko'rilmagan yuksak darajaga ko'tarildi. Qo'shma loyihalar portfeli 3 milliard dollardan oshdi. 2023-yilning o'zida jalb qilingan investitsiyalar hajmi 1 milliard dollarga yetdi.

Energetika, suv ta'minoti, avtomobil va temir yo'llarni rekonstruksiya qilish hamda tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha muhim loyihalar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari strategik xomashyoni chuqur qayta ishlash loyihalarini moliyalashtirishni kengaytirish hamda davlat-xususiy sheriklik asosida ijtimoiy ahamiyatga ega dasturlarni amalga oshirish muhimligini qayd etdi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan tarkibiy islohotlar doirasida ustuvor yo'nalishlardagi loyihalarni amalga oshirish bo'yicha 2026-yilgacha mo'ljallangan qo'shma Hamkorlik dasturi qabul qilindi.

Markaziy Osiyo mintaqasidagi strategik muhim infratuzilmaviy loyihalarni qo'llab-quvvatlash masalalariga alohida e'tibor qaratildi.

Bank boshqaruvchilari kengashining joriy yil sentyabr oyida Samarqand shahrida bo'lajak yillik yig'ilishiga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishning amaliy jihatlari ham muhokama qilindi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev CNPC neft-gaz korporatsiyasi raisi Day Xoulyanni qabul qildi.

Xitoy milliy neft-gaz korporatsiyasi o'z sohasida Jahonning ilg'or kompaniyasi bo'lib, "Fortune Global 500" reytingida yetakchi o'rinlarni egallab kelmoqda. Neft va gaz qazib olish bo'yicha yirik loyihalarni, shu jumladan, xorijiy mamlakatlarda amalga oshirish borasida katta tajribaga ega.

Uchrashuvda O'zbekistonda yerosti gaz saqlash sig'irlarini barpo etish va gaz yetkazish tizimlarini modernizatsiya qilish, zamonaviy burg'ilash texnologiyalarini joriy qilish va neft-gaz tarmog'i uchun mutaxassislar tayyorlash bo'yicha istiqbolli loyihalarni amalga oshirish masalalari muhokama qilindi.

Shavkat Mirziyoyev Xitoyning CITIC korporatsiyasi rahbari Si Goxua bilan ham uchrashuv o'tkazdi.

Xitoy mulkni boshqarish bo'yicha xalqaro investitsiya korporatsiyasi moliyaviy xizmatlar ko'rsatuvchi hamda yirik sanoat va infratuzilma loyihalarini amalga oshiruvchi yetakchi kompaniyadir. Uning aktivlari qariyb 1,5 trillion dollari tashkil etadi.

Uchrashuvda qo'shma loyihalar portfeli kengaytirish masalalari ko'rib chiqildi, bunda asosiy e'tibor mamlakatimiz yo'l-transport va muhandislik infratuzilmasiga, irrigatsiya tizimlarini modernizatsiya qilishga qaratildi.

Davlatimiz rahbari Pekin shahridagi tadbirlar doirasida Xitoy Eksport-import banki raisi Vu Fulinni qabul qildi.

XXR Eksimbankiga 1994-yilda asos solingan. Aktivlari qiymati 800 milliard dollardan ortiq bo'lgan bank tashqi savdo va xalqaro iqtisodiy hamkorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha Xitoyning yetakchi moliyaviy institutidir.

Uchrashuvda mamlakatimizdagi qo'shma loyihalar portfeli 3,5 milliard dollarga yetgani mamnuniyat bilan qayd etildi. Banking Toshkent shahrida mintaqaviy ofis ochish hamda transport va ijtimoiy infratuzilma, sanoat va xususiy sektorni rivojlantirish bo'yicha yangi istiqbolli loyihalarni shakllantirish borasidagi rejalari ko'rib chiqildi.

Pekin shahridagi tadbirlar dasturi yakunlangach, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Shenchjen shahriga keldi.

Aeroportda oliy martabali mehmonni Guandun muzofotining rasmiy shaxslari kutib oldi.

25-yanvar kuni davlatimiz rahbari O'zbekiston — Xitoy investitsiya forumida ishtirok etadi, XRR yetakchi kompaniyalari va moliyaviy tuzilmalari rahbarlari bilan uchrashuvlar o'tkazadi.

Shenchjen — Xitoyning aholi soni bo'yicha uchinchi shahri hamda Guandun muzofotidagi maxsus iqtisodiy hududdir. Texnologiyalar, tadqiqotlar, ishlab chiqarish, biznes va iqtisodiyot, turizm va transport borasida global markazlardan biri, konteynerli yuklar bilan ishlash quvvati bo'yicha dunyodagi to'rtinchi dengiz portidir.

O'ZA

Biz va dunyo

TINCHLIK VA FAROVONLIK YO'LIDA

BARCHA UCHUN BARQAROR KELAJAKNI QURISH MAQSADIDAGI MUHIM QADAM

O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 23-yanvar kuni Xitoy Xalq Respublikasiga boshlangan uch kunlik davlat tashrifi va uning dastlabki natijalari xalqaro ekspertlar hamjamiyatida katta qiziqish uyg'otmoqda.

Jerri MAKDONAX, Janubiy London Savdo-sanoat palatasi ijrochi direktori (Buyuk Britaniya):

— Tashrif, shubhasiz, ikki buyuk davlat o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlovchi tarixiy muhim voqeadir. Ushbu uchrashuv uzoq muddatli madaniy, diplomatik va iqtisodiy aloqalarni ifodalaydi. Bunda o'zbek va xitoy xalqlari nafaqat tovar va xizmatlar, balki o'z madaniy boyliklarini ham almashadi.

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar qadimdan yaqin bo'lib, bu hamkorlikning yangi bosqichiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Bir paytlar madaniy almashinuv yo'li bo'lgan Buyuk ipak yo'li bugungi kunda ikki xalq o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy-gumanitar ko'prikkaga aylanib bormoqda.

Mamlakatlar rahbarlari o'rtasida ishonchli va do'stona munosabatlar o'rnatilgan bo'lib, bu o'zaro anglashuv va hamkorlikni mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Keyingi yillarda amalga oshirilgan oliy darajadagi tashriflar ularning rivojlanishiga kuchli turki berdi.

Ikki davlat o'rtasidagi iqtisodiy hamkorlik alohida ahamiyat kasb etmoqda. Xitoy O'zbekistonning eng yirik savdo

va sarmoyaviy sherigiga aylanib, har ikki davlat iqtisodiyoti rivojlanishi uchun yangi istiqbollarni ochmoqda. "Angren — Pop" temir yo'l tunneli va Markaziy Osiyo — Xitoy gaz quvurlari qurilishi kabi loyihalar keng ko'lamli integratsiyaga intilishdan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning 2024-yilda Xitoyga davlat tashrifi munosabatlar tarixida muhim qadam bo'ldi. Bu nafaqat diplomatiya va iqtisod sohasidagi yutuqlarni mustahkamlaydi, balki har ikki davlat va ularning fuqarolari manfaatiga qaratilgan hamkorlik uchun yangi uflarni ochadi.

Gi Olivye FOR, Parij V Sorbonna universiteti faxriy professori (Fransiya):

— Tashrif juda muhim tashabbus bo'lib, O'zbekistonning yanada uyg'un rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi. Chunki mazkur tashrif ikki tomonlama savdo-iqtisodiy hamkorlikni miqdor va sifat jihatidan yanada kengaytirishga xizmat qiladi.

Qamrab olingan sohalar spektri keng qamrovli bo'lib, siyosiy muloqot va iqtisodiy hamkorlikni, transport sohasidagi o'zaro bog'liqlik va "yashil" energiyaga o'tish kabi

kengayib borayotgan yangi sohalarini o'z ichiga oladi. Va nihoyat, madaniy almashinuv va ilmiy hamkorlik kelajakka muhim sarmoyadir.

Xulosa o'rinda ta'kidlamochimanki, Prezident Shavkat Mirziyoyev butun Markaziy Osiyoni rivojlantirish bo'yicha muhim va aniq qarashlarga ega. Xitoyga davlat tashrifi tinchlik va farovonlik yo'lida barcha uchun yaxshiroq kelajakni barpo etish maqsadidagi muhim qadamdir.

Rudi FANG, O'zbekiston — Singapur turizmni rivojlantirish markazi rahbari, "CASEA" Markaziy va Janubi-Sharqiy Osiyo biznes-palatasi bosh direktori:

— Tashrif ikki davlat o'rtasidagi munosabatlarni mustahkamlashda muhim qadam bo'ldi. Savdo-iqtisodiy sohadagi amaliy hamkorlikni kengaytirish yuzasidan bo'lib o'tgan ko'p tomonlama muhokamalar alohida e'tiborga loyiq.

O'zaro tovar ayirboshlash hajmini 20 milliard dollarga yetkazishdek ulkan maqsadlarni eshitish quvonarlidir. Bu esa mamlakatlar o'rtasidagi hamkorlik, ayniqsa, sifatli qishloq xo'jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish borasida ulkan salohiyat mavjudligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Xitoyning O'zbekiston iqtisodiyotiga kiritilayotgan salmoqli sarmoyalari xitoylik hamkorlarning ishonchi va keng ko'lamli islohotlarni qo'llab-quvvatlayotganidan dalolat beradi.

Infratuzilmaviy modernizatsiya qilish, sanoat kooperatsiyasi, qishloq xo'jaligida texnologiyalar transferi va "yashil" energetikani rivojlantirish kabi muhim yo'nalishlarda hamkorlik dasturlari tayyorlanayotgani har ikki mamlakat uchun barqaror va farovon kelajak sari muhim qadam hisoblanadi. Xitoyning yetakchi bank-moliya institutlari bilan o'zaro hamkorlikni chuqurlashtirish, shuningdek, XRR kompaniyalarini O'zbekistondagi xususiy lashtirish jarayonlariga jalb etishga alohida e'tibor qaratilayotgani bu

hamkorlikning ko'p qirrali ekanini yana bir bor namoyon etadi.

Keyingi yillarda o'zaro tovar ayirboshlash hajmi ikki barobar, qo'shma korxonalar soni uch barobarga ko'paygani e'tiborga molik yutuqlar bo'lib, hamkorlikning jadal va istiqbolli xususiyatidan dalolat beradi.

Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashrifi O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi har tomonlama strategik sheriklik munosabatlariga yangi ta'sirchan sur'at bag'ishlashiga ishonam.

Sheradil BAKTIGULOV, siyosatshunos (Qirg'iston):

— Ushbu tashrif O'zbekiston Prezidentining 2024-yildagi ilk xorijiy safaridir. Bunda chuqur ramziylik bor. Xitoy, shuningdek, Markaziy Osiyo mintaqasidagi aholisi soni bo'yicha eng yirik

tashabbusi" (2022-yil) va Si Szinginning "Global sivilizatsiya tashabbusi" (2023-yil mart) sivilizatsiyalar o'rtasidagi muloqotni yo'lga qo'yishdek ezgu maqsadga erishishga qaratilgan.

Bunday yondashuv O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi ko'p qirrali hamkorlik uchun ishonchli zamin yaratadi. Birinchi natijalar uzoq kutilmadi. Xitoy O'zbekistonning eng yirik investori va savdo hamkoriga aylandi. O'zbekiston biznesi Xitoyda o'z ishtirokini ishonch bilan kengaytirmoqda. Masalan, O'zbekiston gilos, mosh, quritilgan uzum kabi mevalar bo'yicha eng yirik yetkazib beruvchi hisoblanadi. Xitoy biznesi O'zbekiston hududlarida tobora ko'proq yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ochmoqda. Uyali telefonlar, yuk va yengil avtomobillar, sanitariya-texnik vositalar, sement va boshqa yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar O'zbekiston va boshqa mamlakatlar bozori

yurtlarida tahsil olmoqda. Ilmiy-madaniy aloqalar kengaymoqda. Dunyoning boshqa mamlakatlarida bo'lgani kabi O'zbekistonda ham Xitoyni o'rganishga qiziqish yildan-yilga ortib bormoqda. Bu ajablanarli emas. Zero, uning iqtisodiy jihatdan tez ko'tarilishi haqiqatan ta'sirli. 1,4 milliard aholiga ega mamlakat 40 yildan ortiq vaqt davomida inson hayoti va faoliyatining barcha jabhalarida jadal o'sish sur'atlarini namoyish etib kelmoqda.

O'n yildan ortiq vaqt davomida Jahon banki Xitoyni yalpi ichki mahsulot hajmi bo'yicha dunyoda ikkinchi o'rinda qayd etadi. Xitoy eng yirik ta'lim, ijtimoiy ta'minot, tibbiyot va sog'liqni saqlash tizimlariga ega. Mamlakat hokimiyati organlarining sa'y-harakatlari natijasida aholining o'rtacha umr ko'rishi 1960-yildagi 33 yoshdan 78,2 yoshga ko'tarildi. Xitoyda bir milliarddan ortiq kishi asosiy keksalik sug'urtasi bilan qoplangan. Asosiy tibbiy sug'urtada ishtirok etish darajasi 95 foizga barqarorlashdi. Xitoy o'z tajribasi va bilimlarini saxovat bilan baham ko'rishga tayyor. Shu bois, Markaziy Osiyo davlatlari "Bir makon, bir yo'l" tashabbusidagi ishtirokini kengaytirmoqda.

Mazkur tashabbus yo'nalishlaridan biri logistika infratuzilmasini yaratishdir. O'zbekiston bu borada Xitoy va Markaziy Osiyo o'rtasida jahon bozoriga chiqadigan yuk va yo'lovchilarni tashish bo'yicha multimodal yo'nalish tizimini yaratishda, shuningdek, yuqori texnologiyali infratuzilmaviy barpo etishda nafaqat Osiyoda, balki Yevropa, Afrika va undan keyin Amerika va Avstraliya bilan qit'alararo aloqalar doirasida yuk va yo'lovchilar logistikasi uchun muhim rol o'ynashini alohida ta'kidlash lozim.

Ikki davlat rahbarlari tomonidan belgilab berilgan taraqqiyot maqsadlari O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi o'zaro manfaatli hamkorlik yangi marralarni zabt etayotganiga ishonchimimizni oshiradi. Qayd etish kerakki, ikki davlat ravnaqi, ularning dono va uzoqni ko'ra biluvchi rahbariyati, bitmas-tuganmas salohiyat hamda ikki xalqning mashaqqatli mehnatiga asoslanadi.

"Dunyo" AA

O'zbekiston va Xitoy o'rtasidagi munosabatlar qadimdan yaqin bo'lib, bu hamkorlikning yangi bosqichiga salmoqli hissa qo'shmoqda. Bir paytlar madaniy almashinuv yo'li bo'lgan Buyuk ipak yo'li bugungi kunda ikki xalq o'rtasidagi iqtisodiy, madaniy-gumanitar ko'prikkaga aylanib bormoqda.

O'zbekiston gilos, mosh, quritilgan uzum kabi mevalar bo'yicha eng yirik yetkazib beruvchi hisoblanadi. Xitoy biznesi O'zbekiston hududlarida tobora ko'proq yangi ishlab chiqarish quvvatlarini ochmoqda. Uyali telefonlar, yuk va yengil avtomobillar, sanitariya-texnik vositalar, sement va boshqa yuqori qo'shimcha qiymatga ega mahsulotlar O'zbekiston va boshqa mamlakatlar bozori uchun yanada katta hajmda va tobora keng assortimentda ishlab chiqarilmoqda.

davlat hisoblangan O'zbekiston iqtisodiy islohotlarda yetakchilik qilmoqda. Bundan tashqari, har ikki davlat xalqaro munosabatlar tizimida o'z tashqi siyosatini xalqaro huquq normalari doirasida, milliy manfaatlarini hisobga olgan holda qurishda mas'uliyatli davlat sifatida namoyon bo'lmoqda.

Shu bilan birga, O'zbekiston ham, Xitoy ham "win-win" formuladani foydalangan holda xalqaro muammolarni hal qilishda moslashuvchanlikni namoyish etmoqda. Bu formula Shavkat Mirziyoyevning "Tinchlik va xavfsizlik uchun Samarqand birdamlik

uchun yanada katta hajmda va tobora keng assortimentda ishlab chiqarilmoqda.

2023-yil yakunlariga ko'ra, o'zaro tovar ayirboshlash hajmi 13,7 milliard AQSH dollarini tashkil qildi. Ikki davlat o'rtasidagi hamkorlikning yuqori dinamikasi besh yil ichida O'zbekiston bilan Xitoy o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 20 milliard dollarga yetishiga ishonch uyg'otadi.

Ta'kidlash kerakki, savdo hamkorlikning boshqa yo'nalishlariga ajoyib qo'shimcha hisoblanadi. Sakkiz mingdan ortiq o'zbekistonlik yoshlar Xitoydagi oliy o'quv

Jamiyat — islohotlar tashabbuskori

HAYOT VA HAYOTIYLIK IFODASI

Davlat dasturlari tahlili nimalardan dalolat beryapti?

YUKSALISH

Har bir insonga o'z salohiyatini yuzaga chiqarish uchun munosib sharoit yaratish, barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlarning muhim yo'nalishiga aylangan. “O'zbekiston — 2030” strategiyasi doirasida bu boradagi ishlar yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Beshta yo'nalish va yuzta asosiy maqsadni birlashtirgan ushbu hujjat taraqqiyot strategiyasini amalga oshirish jarayonida orttirilgan boy tajriba hamda keng jamoatchilik muhokamasi asosida ishlab chiqilgan.



bo'lishi bilan birga, joriy yilda ko'plab yirik quvvatlar ishga tushirildi. Xususan, ilk bor 100 foiz to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida Karmana va Nurobod tumanlarida umumiy quvvati 200 megavattlik quyosh

Mazkur strategiya qabul qilinganiga hali ko'p vaqt bo'lgani yo'q. Ammo unda belgilangan vazifalarni ro'yogga chiqarish, islohotlardan har bir insonning bahramandligini oshirish borasida muhim qadamlar tashlandi. Har bir islohotning natijasi esa, avvalo, o'z insonlar hayotida, oilalar turmushida qanday o'zgarish yasayotgani bilan o'lchanadi. Qolaversa, soha va tarmoqlarda ro'y berayotgan yangilanishlar, chiroq ochayotgan hududlar qiyofasi ham bu borada muhim mezon bo'lib xizmat qiladi.

“Yuksalish” harakati raisi Bobur BEKMURODOV bilan suhbatimiz yurtimizda ro'y berayotgan ana shunday yangilanish jarayonlari, “O'zbekiston — 2030” strategiyasini hayotga tatbiq etish samaralari va bu yo'nalishda mazkur nodavlat tuzilma faoliyatining o'ziga xos qirralari haqida bo'ldi.

QISQA FURSATDA SALMOQLI NATIJA

— “O'zbekiston — 2030” strategiyasi mamlakatni barcha sohalarda taraqqiy ettirishni ko'zda tutuvchi muhim hujjat hisoblanadi. “Yuksalish” harakati mazkur hujjat doirasida qabul qilinayotgan davlat dasturlarining ijrosini monitoring qilib boradi. 2023-yil davomida bajarilgan ishlar qanday baho berasiz?

— Insoniyat tamadduni bosqichlariga e'tibor qarataidigan bo'lsak, barcha davrlarda kishilik jamiyati, avvalo, xalq bilan muloqot va kengash samarasida yuksalishga erishganiga guvoh bo'lamiz. Bugun yurtimizda amalga oshirilayotgan demokratik islohotlar ham aynan ana shunday e'zgu qadriyatlar bar-davomligini ta'minlashga xizmat qilayotgani quvonarlirdi.

Yangi O'zbekistonda barpo etishga yo'naltirilgan islohotlar aynan xalqimiz bilan bamaslahat amalga oshirilayotgani, bu jarayonda jamoat tashkilotlari xalq va davlat o'rtasida mustahkam ko'priq vazifasini bajarayotgani jamiyatimizda ochiqlik, oshkorlikni ta'minlash, yurtimizdagi islohotlarda xalqimiz faolligini oshirishga zamin yaratmoqda. Xususan, bu hamkorlik har yili qabul qilinadigan davlat dasturlari va boshqa muhim hujjatlarni ishlab chiqish va amalga oshirish jarayonida ham yaqqol ko'zga tashlanadi.

Shuni e'tiborliki, xalqimizning farovon hayoti va islohotlar samaradorligi ham aynan ushbu dasturning qanchalik sifatli va o'z vaqtida amalga oshirilishiga bog'liq. Shu ma'noda, 2023-yil “O'zbekiston — 2030” strategiyasi ijrosining dastlabki yili bo'lganiga qaramay, ko'plab ijobiy qadamlar tashlandi.

Avvalo, davlat xizmatlarini ko'rsatish sohasida navbatdagi yengilliklar yaratilganini ta'kidlash zarur. 2023-yil davomida 205 ta yangi xizmat turi joriy qilinib, jami xizmatlar soni 575 taga yetgan. Misol uchun, endilikda pensiya tayinlash uchun ariza topshirishga ortiqcha vaqt sarflashga hojat qolmadi. Buning uchun anchagina soddallashtirilgan tartibda internet orqali ariza berish imkoniyati yaratildi. Xuddi shu kabi boshqa xizmatlar ham siz-u bizning hayotimizni anchagina osonlashtiradi.

Muhim vazifalardan yana biri sifatida yo'larda harakat tezligini 70 kilometr soat tezlikdan 60 kilometr soatga tushirish masalasi hal etildi. Aytish mumkinki, ushbu qaror ham ko'plab yo'l-transport hodisalarining oldini olishga xizmat qilmoqda.

Bugungi kunda ko'pchilikning e'tiroziga sabab bo'layotgan energetika sohasini ham eslab o'tish maqsadga muvofiq. To'g'ri, hozirda soha transformatsiya jarayonida

stansiyalari barpo etilib, o'tgan davrda ushbu quvvatlar 1 milliard kilovatt/soat “yashil” energiya ishlab chiqardi. Umuman olganda, birgina 2023-yilda umumiy quvvati 2,4 gigavattlik “yashil” elektr stansiyalari ishga tushirildi. Shuningdek, 100 ta podstansiya, 11,5 mingta transformator va 34 ming kilometr tarmoqlar yangilandi.

O'sish kuzatilgan yo'nalishlardan yana biri — transport sohasi. To'g'ri, mazkur yo'nalishda ham foydalanilmagan imkoniyatlar yetarli. Biroq o'tgan yili amalga oshirilgan ishlar munosib baholamaslik adolatdan bo'lmaydi. Masalan, mamlakatimizga 100 ta elektrobuz va 103 ta Yutong avtobusi, shuningdek, 30 ta 18 metrlik King Long avtobusi keltirildi. Toshkent metropolitenining 5 ta yangi bekati ishga tushirildi. O'zbekistondagi aviakompaniyalar soni oshdi va mahalliy reyslar soni ortib, aviachiptalar narxi birmuncha arzonlashdi. Bularning barchasi ichki va tashqi turizm rivoji, demakki, iqtisodiyotimiz barqarorligini ta'minlashga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, albatta.

2023-yilda tibbiyotda ham qator yutuqlarga erishildi. Xususan, bir qancha murakkab jarrohlik amaliyotlari, transplantologik operatsiyalar o'tkazish murakkab amaliyoti tuman darajasigacha tushirildi. Qolaversa, sohada yana qator yuqori texnologik amaliyotlar, robotoxirurgik, kardiokirurgik operatsiyalar o'tkazish yo'lga qo'yildi. Jumladan, yurtimizda birinchi bor kichik yoshli bemorlarda buyrak ko'chirish va suyak ko'migi avtotransplantatsiyasi amaliyoti bajarilgani hamda epilepsiya kasalligida chip o'rnatish va umurtqa pog'onasi qiyshiqiligi radikal korreksiyasi kabi noyob jarrohlik operatsiyalari o'tkazildi.

Birlamchi bo'g'inda esa ko'rsatiladigan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmi ro'yxati belgilanib, aholiga davlat tomonidan 235 turdagi dori vositasi bepul beriladigan bo'ldi. Respublika tez tibbiy yordam markazi hududiy filiallariga qariyb 800 ta zamonaviy “Volkswagen Caddy” avtomashinasi topshirildi.

Umuman, bunday muhim natijalar barcha sohalarda ko'zga tashlandi. Eng asosiysi, belgilangan maqsadlarga erishish uchun ham qonuniy, ham tashkiliy vazifalar amalga oshirilmoqda. Endilikda 2024-yil uchun mo'ljallangan maqsadli ko'rsatkichlarga erishish lozim.

Bular qanday ko'rsatkichlar? Bilasizki, strategiyada 5 ta yo'nalishda 100 ta maqsadli amalga oshirish ko'zda tutilgan. Har bir maqsadga erishish uchun esa bir qator maqsadli ko'rsatkichlarni bajarish belgilangan. Ularning barchasiga to'xtalib o'tishga vaqt yetmasa-da, tushunarli bo'lishi uchun ayrimlarini sanab o'tmoqchiman.



bo'lishi bilan birga, joriy yilda ko'plab yirik quvvatlar ishga tushirildi. Xususan, ilk bor 100 foiz to'g'ri-dan-to'g'ri xorijiy investitsiya hisobidan davlat-xususiy sheriklik asosida Karmana va Nurobod tumanlarida umumiy quvvati 200 megavattlik quyosh

Strategiyaning birinchi yo'nalishi har bir insonga o'z salohiyatini ro'yogga chiqarish uchun munosib sharoit yaratishni ko'zda tutadi. Mazkur yo'nalishda 2024-yilda erishilishi lozim bo'lgan ko'rsatkichlardan biri, bu — bolalarning maktabgacha ta'lim bilan qamrov darajasini 76 foizga yoki toza ichimlik suv va sanitariya-gigiyena infratuzilmasi bilan ta'minlangan davlat maktabgacha ta'lim tashkilotlari ulushini 80 foizga yetkazish. Xuddi shunday ko'rsatkichlar tibbiyot sohasida ham nazarda tutilgan. Xususan, diabet kasalligi bor bemorlarni davolash

bo'g'lar barpo etish, 93 ta sanoat korxonasi-da lokal oqova tozalash inshootlarini qurish va rekonstruksiya qilish kabi maqsadli ko'rsatkichlarga erishishga doir belgilangan vazifalar ham dolzarbliq nuqtayi nazaridan alohida ta'kidga sazovor.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish yo'nalishi bo'yicha joriy yil mahallalarda 15 ta davlat xizmatini “bir qadam”da ko'rsatishni yo'lga qo'yish, hokimliklar faoliyatiga xos bo'lmagan 80 ta vazifani, davlat organlari va tashkilotlarida murojaatlarni qog'oz shaklida ro'yxatga olish

jarayoni bevosita xalq bilan bamaslahat amalga oshirilmoqda. Qaysi bir qonun loyihasi bo'lmagan, agarda u keng jamoatchilik e'tirozlariga sabab bo'lsa, albatta, tegishli o'zgartirishlar kiritilmoqda.

Ikkinchidan, O'zbekistonda har yili yuzlab yangi nodavlat notijorat tashkilotlar ro'yxatdan o'tmoqda va ularning ijtimoiy-siyosiy hayotimizga ta'siri tobora ortib borayotir. O'tgan yili 544 ta yangi nodavlat notijorat tashkiloti davlat ro'yxatidan o'tkazilgan.

Uchinchidan, bugun davlat idoralari va mansabdor shaxslarning jamiyat oldidagi hisobdorlik masalasi kun tartibiga chiqdi. Agar jamiyatni biror-bir masala tashvishga soladigan bo'lsa, bunga mas'ul tashkilotlardan tegishli javobni olish ortiqcha muammo bo'lmay qoldi. Fuqarolar tomonidan jamoatchilik nazorati mexanizmi amalda ishlashni boshladi.

Fikrimga qo'shimcha sifatida O'zbekistonda erkin va kuchli fuqarolik jamiyatini shakllantirish borasida amalga oshirilayotgan keng ko'lami islohotlarni milliy va xalqaro hamjamiyatga yetkazish, fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish istiqbolini muhokama qilish, tavsiya va takliflar ishlab chiqish uchun o'ziga xos platforma yaratilganini aytmoqchiman. Bu “Yuksalish” harakatining tashabbusi bilan har yili o'tkazib kelinadigan “Fuqarolik jamiyati haftaligi”dir.

Haftalikda ishtirok etayotgan nodavlat notijorat tashkilotlari soni ham, muhokama mavzulari ham yil sayin kengaymoqda. Bu gal ichimlik suv ta'minotidan tortib ijtimoiy mas'uliyatli biznes, nogironlik va gender tenglik, ma'muriy islohotlarga qadimiy dolzarb masalalarga e'tibor qaratildi.

Lekin ushbu yo'nalishda hali qilinadigan ishlar yetarlicha, deb hisoblayman. Masalan, mahalliy NNTlar faoliyatini yanada kuchaytirish kerak. Ular mahalliy boshqaruv organlariga ma'lum bir muammolarni yechishda ko'makchi bo'lishi, jamiyatning turli qatlamlari manfaatini namoyon qilishi va qaror qabul qilishda inklyuzivlikni ta'minlashi juda muhim.

Joriy yil parlament saylovlari bo'lib o'tishi belgilangan va ushbu muhim siyosiy tadbir ham mamlakatimizda fuqarolik jamiyatining keyingi taqdirini belgilab beruvchi dolzarb davrlardan biri bo'ladi.

Xavfsiz va tinchliksevar davlat tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish yo'nalishida esa birodarlashgan shaharlar sonini 65 taga yetkazish, vatandoshlar ishtirokida tibbiyot, ta'lim va ilm-fan sohalarida 15 ta loyihani amalga oshirish vazifasi nazarda tutilgan.

Yuqorida aytilganidek, 100 maqsadga erishish uchun qator ko'rsatkichlar nazarda tutilgan va ularning har biriga erishish muhim va dolzarb hisoblanadi.

KUCHLI FUQAROLIK JAMIYATI — DEMOKRATIYANING MUHIM ELEMENTI

— “Kuchli davlatdan kuchli fuqarolik jamiyati sari” tamoyilining hayotimizdagi ifodasi nimalarda namoyon bo'lmoqda?

— Demokratiyani kuchli fuqarolik jamiyatidagi tasavvur etib bo'lmaydi. Yana ham aniqroq aytadigan bo'lsak, kuchli fuqarolik jamiyatidagi hech bir davlat bizda demokratiya bor, deb gapirishga haqli emas. Shu ma'noda, fuqarolik jamiyati demokratiyaning muhim elementlaridan biridir. Mamlakatimizda fuqarolik jamiyati nimalarda yoki jamiyat hayotining qaysi jabhalarida o'z so'zi va o'rniga ega ekaniga qarab yuqoridagi tamoyil hayotimizda aksini topayotganini ko'rish mumkin.

Birinchidan, bugun qarorlar qabul qilish

Bu hamkorlikni kengaytirishga qanday hissa qo'shmoqda?

— Akademiya mintaqa mamlakatlari-ning 20 dan ziyod nodavlat notijorat tashkilotlarini birlashtiradi va uning doirasidagi intensiv muloqotlar fuqarolik jamiyatini rivojlantirish uchun mamlakatlararo hamkorlik maydoni bo'lib xizmat qiladi.

Ta'kidlash kerak, keyingi yillarda Markaziy Osiyoda o'zaro hamkorlik va ishonchni mustahkamlashning ijobiy tendensiyasi kuzatilmoqda. Umuman, vaziyat 2016-yilgacha bo'lgan davr bilan solishtirganda ancha yaxshilangan. Bu barchamizning katta yutug'imiz.

Ekspertlar hamjamiyati ham mintaqa davlatlari rahbarlari o'rtasidagi munosabatlarni jadalloshtirib borayotganini, tovar ayirboshlash hajmi, amalga oshirilayotgan qo'shma loyihalar soni ortganini e'tirof etmoqda.

Bugungi kunda Markaziy Osiyo mamlakatlarida o'n minglab jamoat (nodavlat) tashkilotlari faoliyat olib boradi. Ular o'z tarmoqlarida yuz minglab faollar, volontyorlar, jamoatchilik fikri yetakchilarini birlashtiradi. Fuqarolik jamiyati darajasidagi o'zaro hamkorlik mintaqa mamlakatlari NNTlari o'rtasida o'zaro hamkorlikni yanada rivojlantirish uchun asos yaratadi. Tizimli o'zaro yordamni ta'minlaydi va uchinchi sektorda umumiy siyosatni muvofiqlashtirish uchun sharoit yaratadi.

Ilk muloqotlarda mintaqadagi har bir davlat kesimida muvaffaqiyatli faoliyat olib borayotgan tarmoqlar, koalitsiyalar, alyanslarni, ularning o'xshash va farqli tomonlarini ko'rib chiqish, tahlil qilish imkon bo'ldi. Bir necha dolzarb masalalar hali o'z yechimini kutayotgani oydinlashdi. Umumiy vazifamiz mintaqa mamlakatlari o'rtasida ishonchni mustahkamlash, yuzaga kelayotgan tendensiyalar, muhim ijtimoiy muammolarni birgalikda hal etish, sa'y-harakatlarimizni birlashtirish borasidagi hamkorlikni ortga qaytarmadigan qilishdir.

— Yaqinda “Yuksalish” harakati xalqaro tashkilot maqomini oldi. Bu mamlakatimiz, mintaqamiz va dunyoda tinchlik va farovonlikni ta'minlash, xalqimiz ko'zlayotgan buyuk davlat barpo etish g'oyasini ro'yogga chiqarishda qanday o'rin tutadi?

— Harakatimizning asosiy vazifalari qatorida vatandoshlarimizni ixtiyoriylik asosida birlashtirish, ilg'or g'oyalarni ilgari surish va eng asosiysi, islohotlarni amalga oshirishga ko'maklashish kabilarni e'tirof etgan holda, “O'zbekiston — 2030” strategiyasida belgilangan maqsadlarga erishishda ham hukumatga ko'maklashishni maqsad qilganmiz. O'tgan qisqa davrda bir necha xalqaro loyihalarga qo'l urdik va o'ylaymanki, bu borada o'ziga yarasha samarali faoliyatni tashkil eta oldik.

Misol uchun, birgina 2023-yilda “Yuksalish” harakati tomonidan 20 dan ortiq xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikdagi loyihalar amalga oshirildi, 16 ta tadqiqot va 60 dan ortiq trening va jamoatchilik muhokamalari o'tkazildi.

Eng asosiysi, biz xorijiy hamkorlarimiz bilan faoliyatimizni yurtimizdagi islohotlarni amalga oshirishga ko'maklashish nuqtayi nazaridan tashkil etypmiz. Jumladan, “Yuksalish” harakati tashabbusi bilan 5 ta shahar hokimlaridan iborat delegatsiyaning Turkiyaga tashrifi tashkil etildi. Tashrif davomida O'zbekiston va Turkiyaning ikki shahri “qardosh shaharlar” maqomini oldi. Bular — Qo'qon va Balikesir, Termiz va Shaxinbey shaharlari.

Mahalliy davlat hokimiyati idoralari vakillari uchun xorijiy tajirovkalarni tashkil etish, xorijiy ekspertlarni mamlakatimizga jalb etish va ular tajribasini mahalliy sharoitda qo'llash kabi masalalar ustida ham faol ishlayapmiz. Buning uchun esa tashkilotimizning xalqaro maqomida bo'lishi muhim sanaladi.

Shu bilan birga, “Yuksalish” harakati bundan buyon Markaziy Osiyo mintaqasi bilan bog'liq loyihalarga jiddiy e'tibor qaratishni maqsad qilgan. Bu yo'nalishda ko'proq mintaqa mamlakatlari fuqarolik jamiyati institutlari o'rtasidagi muloqotni mustahkamlash, xalq diplomatiyasini kuchaytirish, qolaversa, yoshlarni faol hamkorlikka jalb qilish kabi vazifalarni bajarish biz uchun dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Umuman olganda, “Yuksalish” harakati mintaqa manfaatlarini xalqaro tashkilotlar doirasida faol ilgari surishga intiladi. Biz Markaziy Osiyoda tinchlik va barqaror rivojlanish yo'lidagi yangi loyihalarni amalga oshirishni mo'ljallaymiz.


XALQARO HAMKORLIK RIVOJIDA XALQ DIPLOMATIYASINING O'RN

— “Yuksalish” harakati tashabbusi bilan Markaziy Osiyo NNTlarining birinchi akademiyasi tashkil etilgan edi.

“Yangi O'zbekiston” muxbiri Bahor XIDIROVA suhbatlashdi.

Xalqaro hamkorlik

ILM-FAN VA TA'LIM SOHASIDA YANGI DAVR BOSHLANMOQDA



Gulchehra RIXSIYEVA,
Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti rektori, professor

Bu jabhadagi munosabatlar O'zbekiston Oliy Ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi bilan Xitoy Ta'lim vazirligi o'rtasidagi hamkorlik bitimiga asoslanadi. Shuningdek, Toshkent va Samarqand shaharlarida Konfutsiy institutlarini tashkil etish to'g'risidagi shartnomalar ta'lim sohasidagi hamkorlikning asosiy hujjatlariga bo'ldi.

Bu ikki davlatning oliy ta'lim hamda ilmiy fan sohasidagi hamkorligida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetining ham o'ni ahamiyatli. Yurtimizda sharqshunoslik ta'limining ilk davrlaridanoq xitoy tili asosiy sharq tili sifatida mazkur yo'nalish talabalariga o'qitilib kelingan. Bugungi kunda universitetda xitoy tili ega yuqori malakali kadrlar, xususan, xitoy filologiyasi, tarjimonshunoslik, jurnalistika, gid hamrohligi, turizm, tarix, xalqaro munosabatlar, Xitoy iqtisodiyoti va siyosati sohalarida mutaxassislar tayyorlanadi.

2014-yilda Toshkent davlat sharqshunoslik institutida xitoyshunoslik fakulteti tashkil etildi. Hozir universitetda qariyb 800 ga yaqin talaba mazkur yo'nalish bo'yicha ta'lim olib keladi. Shuningdek, universitetda O'zbek — Xitoy tadqiqotlari ilmiy markazi, Gansu — UNESCO, Lanjou universiteti madaniyat almashinuvi, Shanxay universiteti ijodkorlik markazlari faoliyat yuritaypti. Mazkur markazlarda xitoy tili va yozuvi, tarixi va tarixshunosligi, adabiyoti, siyosati, xalqaro munosabatlardagi o'zini, iqtisodiyotga oid tadqiqotlar olib borilmoqda.

O'tgan 2023-yilda Xitoyning yetakchi universitetlari bilan hamkorlik yangi bosqichga ko'tarildi. Yil davomida oliyogha Xitoydan o'ndan ortiq rasmiy delegatsiya tashrif buyurdi.

2023-yilda universitetimiz tomonidan XXR oliy ta'lim hamda ilmiy tadqiqot muassasalari bilan imzolangan memorandum va bitimlar soni

Ajdodlarimizning Xitoy bilan aloqalari azaldan ikki yurt ravnaqi uchun ahamiyatli bo'lgan. Yaqin qo'shni bo'lmasa-da, ularni birlashtirib turgan rishta — Buyuk ipak yo'li ilm-fan, madaniyat, iqtisodiyot musharak bo'lishiga zamin yaratgan. Xitoy Vatanimiz mustaqilligini birinchilardan bo'lib tan olgan davlat bo'lib, ayni paytda yaqin strategik hamkorimiz hamdir. O'zbekiston o'tgan 32 yil davomida XXR bilan keng ko'lamli qo'shma loyihalarni amalga oshirib kelmoqda. Bu davr ichida oliy ta'lim hamda ilmiy hamkorlik sohasida ham ko'zga ko'rinarli yutuqlarga erishildi.

yigirmadan ortdi. TDSHuning ellikka yaqin professor-o'qituvchisi hamda talabasi XXRga o'qish hamda malaka oshirishga yuborildi. Jumladan, yozgi ta'lim davrida o'ndan ortiq o'qituvchi Lyaonin pedagogik universitetida, joriy yilning 2-16-yanvar kunlari universitet professor-o'qituvchilari va universitet huzuridagi akademik litsey o'qituvchilari XXRning Xinjian pedagogika universitetida maxsus ikki haftalik qayta tayyorlash kurslarida malaka oshirdi.

Xitoy tili biladigan yuqori malakali kadrlar hamda xalqaro standartlarga mos oliy ta'limga bo'lgan ehtiyojdan kelib chiqib, joriy o'quv yilidan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti va Lyaonin pedagogika universitetining 2+2 qo'shma dasturi ish boshlandi. Bu dastur bo'yicha 20 nafar talaba xitoy tili mutaxassisligi bo'yicha 1-bosqichga qabul qilindi. Mazkur dasturga ko'ra, talabalar ta'limning dastlabki ikki yilida Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida, so'nggi ikki yilida Lyaonin pedagogika universitetida tahsil oladi.

Xitoyshunoslik sohasida ilmiy faoliyatni rivojlantirish maqsadida universitetimiz huzurida Xitoyning yetakchi oliy ta'lim muassasalari bilan hamkorlikda O'zbek-Xitoy ilmiy markazi tashkil etilgan. Markaz faoliyatining asosiy yo'nalishlari sifatida monografiyalar nashr ettirish, Xitoyning ichki, tashqi siyosati va iqtisodiy tajribasini o'rganish, ikki davlat o'rtasidagi hamkorlik

Pekin va Tyanzin shaharlarida 2 kun davom etgan forumda yetakchi oliy ta'lim dargohlariga tashriflar uyushtirildi, o'zbekistonlik rektorlar zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar, yuqori ilmiy salohiyatga, talablarga javob beradigan infratuzilmaga ega universitetlar faoliyati bilan tanishdi.

istiqbollari, yangi avlod o'quv qo'llanmalarini yaratish, shuningdek, mazkur sohada yosh tadqiqotchilarni tayyorlash kabllarni e'tirof etish mumkin. Ushbu faoliyat doirasida universitet xitoyshunos tadqiqotchilarining O'zbekiston mustaqilligi davrida yaratilgan qator ilmiy ishlari chop etildi. Jumladan, o'zbek sinolog olimlarining 22 jildidan iborat monografiyalar turkumi hamkorligimizning yaqqol namunasi va ilm-fan rivoji uchun salmoqli tuhfa bo'ldi.



Ushbu kitoblar taqdimotlari universitetda va Xitoyda o'tkazildi. Xitoyning yetakchi universitetlari kutubxonalari taqdim etildi. Albatta, mazkur universitetlar rahbarlari va olimlari Toshkentda Xitoy o'rganish bo'yicha shunday keng tarmoqli ishlar amalga oshirilayotganidan juda mamnun bo'ldi.

Kuni kecha, ya'ni 22-23-yanvar kunlari Pekin shahrida tarixda ilk marotaba O'zbekiston va Xitoy oliy ta'lim muassasalarining forumi tashkil etildi. Ushbu tadbirda 100 dan ortiq universitet rahbarlari ishtirok etdi, O'zbekiston va Xitoy universitetlari hamkorligi to'g'risidagi Pekin deklaratsiyasi imzolandi. Deklaratsiya hamkorlikning barcha jihatlarni qamrab olgan va kelgusida amalga oshiriladigan ta'limiy, ilmiy, innovatsion faoliyatdagi yangi loyihalarning samarali bajarilishida, universitetlarni tom ma'noda rivojlantirishda yangi qadam bo'ladigan muhim institutsional hujjat bo'ldi, deyshimiz mumkin. Mazkur hujjatda belgilangan vazifalar ijrosi doirasida shu forumning o'zida yangi hamkorliklar boshlandi.

Forumda har ikki mamlakat oliy ta'lim dargohlari rektorlari o'z universitetlari taqdimotini o'tkazdi. Turli soha va ta'limning AKT, muhandislik, gumanitar fanlar, iqtisodiyot, til o'qitish, ta'lim bilan ishlash chiqarishini uyg'unlashtirish kabi qator yo'nalishlarni qamrab olgan ushbu taqdimotlar yordamida universitetlar yaqindan tanishildi. Yangi aloqalarni yo'lga qo'yish maqsadida universitetlararo 80 dan ortiq anjuman memorandumlari va shartnomalar imzolandi va to'g'ridan-to'g'ri muloqot orqali qator kelishuvlarga erishildi.

Shuningdek, forum o'zaro do'stlik rishtalarini mustahkamlashda, oliy ta'lim transformatsiyasi jarayonlarida muhim qadam bo'ldi, deya olamiz. Chunki nafaqat gumanitar yo'nalishlar, balki axborot texnologiyalari, texnika, iqtisodiyot, qishloq xo'jaligi, geologiya kabi ko'plab fan tarmoqlari bo'yicha kadrlar tayyorlovchi universitetlarning ustuvor yo'nalishlari orasida oliy

ta'limni raqamlashtirish, sun'iy intellekt yordamida faoliyatni takomillashtirish, jahon ilm-fani va inson kapitalini rivojlantirishga hissa qo'shadigan ko'p tarmoqli loyihalarni amalga oshirish yo'lida yangi hamkorliklarga start berildi.

Pekin va Tyanzin shaharlarida 2 kun davom etgan forumda yetakchi oliy ta'lim dargohlariga tashriflar uyushtirildi, o'zbekistonlik rektorlar zamonaviy o'quv va ilmiy laboratoriyalar, yuqori ilmiy salohiyatga, talablarga javob beradigan infratuzilmaga ega universitetlar faoliyati bilan tanishdi.

O'zaro hamkorlik aloqalarimizda muhim o'rin egallovchi Xalqaro hamkorlik va til ta'limi markazi faoliyatini bilan tanishish maqsadida mazkur tashkilotga ham tashrif uyushtirildi. U butun dunyo bo'yicha xitoy tili va madaniyatini o'qitish ishlarini muvofiqlashtiruvchi, talabalarining Xitoyda ta'lim olishi va tadqiqotlari uchun grantlar ajratuvchi katta markazdir. O'zbekiston yoshlari ham mana shu markaz tomonidan ajratiladigan grantlar va stipendiyalar g'olibi bo'lib, Xitoyda ta'lim olmoqda. Ushbu markaz dunyo bo'yab 500 dan ortiq Konfutsiy instituti faoliyatini ham muvofiqlashtiradi. Rektorlar forumi doirasida bu markazda tashkil etilgan yig'inda markaz rahbariyati tomonidan Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti bilan hamkorlik aloqalari yuqori baholandi. Toshkentdagi Konfutsiy institutining mamlakatimiz hukumati va TDSHU tomonidan qo'llab-quvvatlab kelinayotgan uchun minnatdorlik bildirdi.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzurida faoliyat yuritayotgan Konfutsiy instituti bugungi kunda mamlakatimiz rahbari va hukumatimizning qo'llab-quvvatlashi natijasida zamonaviy infratuzilmaga ega eng yangi va chiroyli ta'lim maskaniga aylandi. Institutga kiraverishda Alisher Navoiyning "Olam ahli bilimgizkim, ish emas dushmanlig, Yor o'lung bir-biringizgakin, erur yorlig" ish, Konfutsiyning "O'qisang, o'rgansang, shu

emasmi baxt, Do'sting kelsa yiroqdan bu ham asli baxt" degan hikmatli so'zlari yozib qo'yilgan. Yoshlarimiz xitoy tili yuqori darajada o'rganishi uchun ushbu institutda yangi sharoitlar yaratildi. Xitoy tili boshlang'ichdan eng yuqori darajagacha o'rganishga barcha sharoitlar va resurslar mavjud Konfutsiy institutida xitoylik 10 ga yaqin o'qituvchi dars berib kelmoqda.

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti ham Pekin forumida qator kelishuvlarga erishdi. Jumladan, Pekin til va madaniyat universiteti o'rtasida talabalar almashinuvi amalga oshirish to'g'risida bitim imzolandi. Natijada TDSHU xitoyshunoslik fakulteti talabalari 1-2-semesterda Pekinga, Pekin til va madaniyat universiteti talabalari TDSHUGa o'qishga boradi. Sinxron tarjimonlar tayyorlash bo'yicha kurslarga TDSHU o'qituvchi va tadqiqotchilari yuboriladi.

Gansu siyosatshunoslik va huquq universiteti o'rtasidagi hamkorlik doirasida anjuman memorandumlari imzolandi. Bunda professor-o'qituvchilar va talabalar almashinuvi, pedagog kadrlar malakasini oshirish bo'yicha hamkorlik, talabalar uchun yozgi va qishki maktablar, onlayn va oflayn darslar tashkil etish, birgalikda sohaga oid o'quv va ilmiy adabiyotlar yaratish, Markaziy Osiyo va XXR o'rtasidagi siyosiy va iqtisodiy masalalar bo'yicha ilmiy tadqiqotlar loyihalarni qilish, magistratura, bakalavr bosqichida 1+1 va 2+2 qo'shma dasturini amalga oshirish masalalari ko'zda tutildi.

Shensi pedagogika universiteti bilan akademik va ilmiy hamkorlik o'rnatish bo'yicha anjuman memorandumlari doirasida esa akademik almashuvlar bilan birga TDSHU huzuridagi Sharq mamlakatlarning rivojlanishini taqdir etish ilmiy-tahlil markazi va Shensi pedagogika universitetining "Bir makon, bir yo'l" afg'onshunoslik markazi o'rtasida ilmiy hamkorlik o'rnatiladi va loyihalar amalga oshirildi.

Forumda TDSHU va Lanjou universiteti o'rtasida Konfutsiy instituti faoliyatini hamkorlikda rivojlantirish to'g'risida bitim imzolandi. Unda Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti huzuridagi O'zbek-xitoy Konfutsiy instituti faoliyatini yangi shart-sharoitlardan kelib chiqib yanada rivojlantirish, institutda zamonaviy texnologiyalarni joriy etish, lingafon xonalarni oshirishga mablag' ajratilishi, talabalar va akademik litsey o'qituvchilari uchun Xitoy universitetlarida ta'lim grantlari olishga imkoniyatni kengaytirish kabi masalalar qamrab olingan.

Xulosa qilib aytganda, Xitoydagi universitetlar va tashkilotlar bilan davom etayotgan hamkorlik xitoy tili mukammal biladigan, xitoyshunoslik sohasida keng va chuqur bilimga ega kadrlar tayyorlashda ijobiy natija beradi.

Oliy ta'limdagi yangi voqe'lik va islohotlardan kelib chiqib, fan va ta'lim integratsiyasi, ilmiy tadqiqot ishlarni iqtisodiyot subyektlari, tashqi savdo, xususiy biznesning amaliy talablari bilan yaqinlashtirish zarurligini alohida ta'kidlash kerak. Universitetlar uchun bu noan'anaviy manbalardan grantlar jalb qilish, moliylashtirish uchun mutlaqo yangi platformadir.

Anjuman

ILMIY QUVVATLANISHGA ASOS



Bahrom ABDULLAYEV,
fizika-matematika fanlari doktori, professor

Prezidentimiz ushbu fikrlarni Xitoyga davlat tashrifi arafasida "Jenmin jibao" gazetasida e'lon qilingan ikki mamlakat munosabatlari bag'ishlangan maqolasida qayd etdi. O'zbekiston va Xitoy o'z tarixidagi eng yaxshi davmi boshdan kechirayotgan hozirgi pallada oliy ta'lim sohasidagi hamkorlik ham tobora keng ko'lam kasb etib bormoqda.

Birgina Urganch davlat universiteti misolida oladigan bo'lsak, Xitoy Xalq Respublikasining ko'plab oliy ta'lim muassasalari bilan ilmiy aloqalar yo'lga qo'yilgan. Xususan, Nanchang va Shenyang pedagogika universitetlari

"Mamlakatlarimizning ko'p qirrali hamkorligi xalqaro maydondagi do'stlik va o'zaro yordamning yorqin namunasidir. O'zbekiston Xitoyning global birlashtiruvchi kuchga aylangan "Bir makon, bir yo'l" tashabbusini amalga oshirish doirasida turli dasturlarda faol ishtirok etmoqda".

bilan hamkorlik shartnomalari imzolangan. Shartnomaga asosan, 2020/2021-o'quv yilida Nanchang universiteti bilan bizning oliy ta'lim dargohimiz o'rtasida turizm yo'nalishida qo'shma ta'lim dasturlari asosida kadrlar tayyorlash bo'yicha muzokaralar va amaliy ishlar olib borildi. Urganch davlat universitetida "UZB-Ind-2021-88-raqamli quyosh elementlarida foydalaniladigan nanotuzilmali gidrofofik va supergidrofofik materiallarni o'rganish" mavzusidagi ilmiy texnik grant bo'yicha loyiha amalga oshirildi.

Shuningdek, Sichuan universiteti olimlari va Talesun kompaniyasi xodimlari bilan birgalikda Orolbo'yi hududida quyosh elementlarining foydali iqtisodiy samaradorligini oshirishga oid ilmiy tadqiqot ishlari yo'lga qo'yilgan.

Talesun kompaniyasi tomonidan tayyorlangan quyosh elementlaridan universitetda quyosh panellari yig'ildi. Ularga changning ta'sirini laboratoriya sharoitida tadqiq qilish uchun maxsus uskuna yaratildi. Ushbu uskunadan o'quv jarayonida foydalanish maqsadida intellektual mulk agentligi tomonidan patent guvohnomasi ham olindi. Quyosh panellari Orolbo'yi hududi iqlim omillarining ta'sirini o'rganish maqsadida panellar yuzasiga o'tirgan changlarning kimyoviy tarkibi o'rganildi, o'rganish natijalari bo'yicha Scopus bazasida indeksatsiyalangan jurnallarda maqolalar chop qilindi.

O'tgan yilning ikkinchi yarmida Urganch davlat universiteti Sichuan universiteti bilan matematika sohasida hamkorlik qilish, ilmiy tadqiqot loyihalarni amalga oshirish va professor-o'qituvchilarni almashirish bo'yicha kelishuvga erishdi.

2023-yil 25-noyabrda 1-dekabrgacha Pekin, Nanning, Fanyangan, Gansu shaharlari nufuzli oliy ta'lim muassasalari va boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish, 2023/2024-o'quv yili uchun akademik mobillikni amalga oshirish bo'yicha kelishuvlarga erishish, investitsiya va turizm forumlarida ishtirok etish uchun Xorazm viloyati delegatsiyasi tarkibida Xitoyda bo'ldik. Fanyangan shahrida o'tkazilgan "Xalqaro innovatsion tibbiyot sohasidagi hamkorlik" anjumanini tadbirlarida ishtirok etdik. Guansida bo'lib o'tgan "Xitoy — O'zbekiston iqtisodiy va turizm biznes forumi" doirasida Xorazm viloyatida savdo-iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish, ishbilarmon doira vakillari bilan sanoat, qurilish, turizm va ijtimoiy sohalar

hamkorlik qilish masalalari muhokama qilindi. Lanchjou shahrida joylashgan Gansu qishloq xo'jaligi universiteti vitse-prezidenti, professor Li Guang bilan rasmiy uchrashuvda universitetlar o'rtasida ta'lim va ilmiy tadqiqot sohasida hamkorlik qilish bo'yicha



kelishuvlarga erishildi. Muzokaralarda Urganch davlat universiteti bilan o'qituvchi va talabalar almashinuvi yo'lga qo'yish, ikki tomonlama hamkorlikda ilmiy tadqiqot ishlarni

rivojlantirish istagi bildirildi. Shu bilan birga, universitetlar o'rtasida ta'lim va ilmiy tadqiqot yo'nalishida memorandum imzolashga kelishib olindi. "Xorazm — Pekin investitsiyalar va turizm" forumi doirasida esa, Shandong Fanlar akademiyasi va Urganch davlat universiteti o'rtasida hamkorlik memorandumlari imzolandi.

Shu haftada Pekin shahrida O'zbekiston Respublikasi Oliy Ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi hamda Xitoy Xalq Respublikasi Ta'lim vazirligi tomonidan O'zbekiston — Xitoy ta'lim forumi o'tkazildi. Unda mamlakatimiz tomonidan 37 ta, Xitoy tomonidan 110 ta yetakchi oliy ta'lim muassasalari rektorlari, jami 250 ishtirokchi qatnashdi.

Forum doirasida aniq va ijtimoiy fanlar, muhandislik, qishloq xo'jaligi, AKT, tibbiyot va farmatsevtikaga bag'ishlangan sessiyalar bo'lib o'tdi. Tadbir davomida ikki davlat oliy ta'lim muassasalari o'rtasida 70 ta ikki tomonlama hujjat imzolandi, 5 ta oliy ta'lim muassasasi o'rtasida qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish bo'yicha kelishuvlarga erishildi. Mazkur qo'shma ta'lim dasturi asosida 300 dan ortiq talaba Xitoyning ilg'or universitetlarida tahsil olish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga, o'zbekistonlik 100 dan ortiq talaba uchun grant dasturlari tashkil etiladi.

Forumda O'zbekiston va Xitoy oliy ta'lim muassasalari hamkorligi to'g'risida Pekin deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu deklaratsiya doirasida Xitoy va O'zbekiston oliy ta'lim muassasalari o'rtasida institutsional platforma

yaratish, Xitoy — Markaziy Osiyo ta'lim hamkorligi modelini shakllantirish, akademik almashinuvi dasturlarini yanada rivojlantirish, qo'shma tadqiqotlar va innovatsion loyihalarni amalga oshirish nazarda tutilgan.

Mazkur tadbir Urganch davlat universiteti uchun ham istiqbolli kelishuvlarni taqdim etdi. Jumladan, Pekin xalqaro matematik tadqiqotlar markazi direktori, professor Gong Tian bilan kechgan uchrashuvda tomonlar o'rtasida matematika sohasida hamkorlik o'rnatish, birgalikda xalqaro matematika markazini tashkil etish, talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvi yo'lga qo'yish bo'yicha muzokaralar olib borildi. Shuningdek, Pekin universitetining vitse-prezidenti Fang Fang va kotibi Xao Pinglar bilan universitetlar o'rtasida ta'lim va ilm-fan yo'nalishida hamkorlik aloqalarini o'rnatishga kelishib olindi. Mazkur kelishuvda asosiy e'tibor talabalarining xitoy tili o'rganishi uchun imkoniyat yaratish, talaba va professor-o'qituvchilar mobillik dasturlarini amalga oshirish, o'quv jarayoniga professor-o'qituvchilar va mutaxassislarni jalb qilish, talabalar uchun qishgi va yozgi maktablar tashkil etishga qaratildi.

Anjuman doirasida Gansu qishloq xo'jaligi, Lanchjou Jiaotong hamda Lanchjou san'at va fan universitetlari bilan shartnomalar imzolandi. Shartnomalar talabalar almashinuvi va akademik ta'lim dasturlari, URDU talabalari uchun onlayn xitoy tili o'rgatish, o'quv jarayoniga professor-o'qituvchilarni jalb qilish, birgalikda qo'shma ilmiy loyihalarni amalga oshirish, universitetlar professor-o'qituvchi va yosh olimlarining stajirovka o'tashini hamda malaka oshirishini tashkil etish singari ko'plab manfaatli kelishuvlarni nazarda tutadi.

O'zbekiston — Xitoy ta'lim forumi Tyanzin shahrida davom etdi. Uchrashuvlar yakunida Urganch davlat universiteti va Tyanzin xorijiy tili universiteti o'rtasida hamkorlik shartnomasi imzolandi. Unga ko'ra, o'zaro professor-o'qituvchi va talabalar almashinuvi, ilmiy tadqiqot va ta'lim sohasida istiqbolli aloqalar yo'lga qo'yiladi.

Ma'naviy taraqqiyot

QALBLARGA TO'G'RI XABAR BERMOQ..



Zulfiya MO'MINOVA, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, shoira

Yosh iste'dodlarni har tomonlama qo'llab-quvvatlashni maqsad qilgan Zomin seminari muntazam chin iste'dod sohiblarini kashf etmoqda. Mazkur seminar ishtirokchilarini tanlash va ijodini adolatli baholash bo'yicha ishlaydigan hay'at a'zolarining biri sifatida aytishim mumkinki, Zomin seminariga borish uchun ijodini taqdim etgan yoshlar ichida yangi iste'dodlar yildan-yilga ko'payib bormoqda va bu davlat tomonidan ko'rsatilayotgan g'amxo'rlikning yaqqol samarasidir.

Yaqin o'tmishda Yozuvchilar uyushmasi bir qo'ningoh topolmasdan adashgan karvon misoli hali u yerda, hali bu yerda yurgani dilimizni vayron qilib, qalbimizni o'ksitgani hech yodimizdan chiqmaydi. Adabiyotga va ijod ahliga cheksiz mehr ko'rsatilib, Adiblar xiyobonida uyushmaning muhtasham binosi qad rostlagani ham qalbimiz to'rida.

Yaqin o'tmishda adabiyotimizda ulkan iz qoldirgan aziz ustozlarimizning yubileyi ham maktab, kollej va mahalla miqyosida o'tkazilgan guvohi bo'ldik. Bugun ularning yirik jildli asarlari Yozuvchilar uyushmasi homiyligida chop etilayotgani, radio va televideniya maxsus eshittirish va ko'rsatuvlar tayyorlanayotgani shoiru adiblarga ilhom, iftixor baxsh etmoqda. Adabiyotimizning yirik namoyandalari yubileyi yurtimizning katta-katta san'at saroylarida keng nishonlanmoqda. Ulug' ustoz Abdulla Oripov hayoti va ijodiga bag'ishlangan badiiy film boshqa tillarga ham tarjima qilindi. Turkiyada o'tgan kinofestivalning oliy sovrinini qo'lga kiritdi.

O'rtasiga haykali o'rnatildi. Ushbu haykalning ochilishida so'zga chiqqan O'zbekiston xalq shoiri Usmon Azimning otashin nutqi va she'rlarini tinglab turib, Usmon Nosir abadiy barhayotligiga va yurtimiz oltin beshiklarida yana qanchadan-qancha Usmon Nosirlar tug'ilajagiga ishonch hosil qildik.

Ma'naviyatimiz ildizlari tafakkur daryosining ming bir imoqlaridan suv ichsa, ulardan biri muzeyimizdir. Tarix haqiqatlaridan so'zlovchi o'lmas meros bo'lgan muzeylarimiz qadriyatimizni uzoq yillar yoddan chiqdi. Bu bebaho xazinalar tinimsiz sotildi, o'g'irlandi, talandi, barbod etildi. Xayriyat, muzeylar faoliyatini takomillashtirish bo'yicha ham savobli ishlar boshlandi.

Xususan, shu maqsadda yetti yillik dastur qabul qilinadi. Unga asosan, Temuriylar tarixi



o'qitish samaradorligiga ham alohida e'tibor qaratildi. Milliy sertifikatga ega bo'lgan o'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilariga kelgusi o'quv yilidan boshlab 50 foiz ustama to'lanishi qayd etildi.

Yashirib nima qilamiz? O'zbek tili va adabiyoti fani o'qituvchilarining obro'si ancha pastga tushib qolgan edi. Go'yo bu fan chuqur o'rgatilmasa ham bo'laveradigandek. Yo'q, endi bunday bo'lmaydi. Hammamiz uchun sevimli o'zbek tili va adabiyotidan saboq beruvchi o'qituvchilarning ham yelkasiga oftoq tegadigan bo'ldi. Bu zabardast yelkalarda millat ma'naviyatini yuksaltirishdek sharaflari yuk bor. Bu yuk juda og'ir va qimmatbaho. Ularning fani axloq, odob haqidagi fandi. Bu fan inson ongida eng muqaddas tuyg'u — Vatanga muhabbatni kamol toptiradi. Tilimizni sevdiradi, e'tiqodlarni tozalaydi, qarashlarni soflaydi.

Barcha fanlarga muhabbat, eng avvalo, adabiyotdan boshlanadi. Deydilar, Qur'on nozil bo'lgan davrda arablarda adabiyot va she'rriyat eng yuqori cho'qqiga chiqqan. Odamlar shunchalik mahorat hosil qildilarki, o'ylamay to'g'ri-randan-to'g'ri she'r to'qir edi.

Bugun bu borada bizda ahvol qanday? Tan olish kerakki, bir sinfda 30 ga yaqin o'quvchi bo'lsa, ularning yarmi she'r yozish tugul, she'r yodlashni yoqtirmasligiga guvoh bo'ldik. Adabiyot inson qalbinu mo'jizaviy ta'sir ko'rsatadi. Millat bolalarini bu mo'jizadan o'zbek tili va adabiyoti o'qituvchisi bahramand etadi.

Muqaddas kitoblarda yozilgan haqiqat yo'lida ilming uch sababini bilmoq kerak. Bular aql, sog'lom hissiyot va to'g'ri xabar. Zero, ma'naviyatimiz rag'iboti ham qalblarga to'g'ri xabar bermoqdir.

hamda Tabiat muzeylarining ekspozitsiyasi yangilanadi. Alisher Navoiy nomidagi Adabiyot muzeyi kapital ta'mirlanadi. Bundan tashqari, muzeylarimizda, xususan, O'zbekistonda Islom sivilizatsiyasi markazida Birinchi va Ikkinchi Rennassans, davlatchilik tarixi va buyuk allomalar faoliyati bo'yicha yangi ekspozitsiyalar tashkil etiladi. Fransiya bilan hamkorlikda Milliy restavratsiya markazi faoliyati yo'lga qo'yiladi. Muqaddas kitob — Usmon Qur'oni sahilalari konservatsiya qilinadi.

Yurtimizning ko'hna tarixiga bag'ishlangan 18 ta arxeologiya yodgorligi ochiq osmon ostidagi muzeyga aylanadi. Sohibqiron Amir Temur bog'lari qayta tiklanadi, "Buyuk ipak yo'li" muzeyi barpo etilib, Bibixonim majmuasida restavratsiya ishlari boshlanadi.

Bundan 30 yillar oldin Sohibqiron Amir Temur bog'larini qayta tiklashga kirishilgan edi. Afsuski, o'sha paytda ko'chatlar agrotexnika ilimga asoslanmasdan ekilgani, suv yetib boshishi hamda daraxtlar tagidagi namlikni saqlash va tomchilatib sug'orishdek zamonaviy tejakor tajribalar qo'llanmagani uchun qurib qoldi. Bugun qir yonbag'irlarida ham bog'lar barpo etilishdek qulay va samarali tajribaga egamiz. Bu orzularimizdagi bog'lar haqiqatga aylanishiga kafolat bo'la oladi.

Bolalikda yozgi ta'til chog'larida otam biz uch opa-singilni Samarqandga ziyoratga olib kelar edi. Men yil davomida Samarqand tavofiga borish xayoli bilan yashardim. Samarqandning Registon, Ko'ksaroyi, Tillakorining atrofiga negadir har yili har xil qurilish ishlari olib borilar, bu qurilish ishlari chalgilgicha yildan-yilga ko'char edi. Men Bibixonim majmuasini qayta-qayta aylanar edim. Sohibqiron Amir Temurning suyuqli yori, sirdoshi va maslahatgo'yi, taxt vorislarining tarbiyachisi Bibixonim ziyoratgohi yil sayin fayzini yo'qotib, cho'kib borardi. Nazarimda, majmua ichidan qandaydir kuyik hid kelgandek bo'lar, ziyoratgohning bir chetida men uchun juda aziz bo'lgan muhtarama zot yig'lab turgandek tuyulaverardi.

Ha, bu balki umri davomida ne-ne tuhmat gulxanlarida kuygan, toju taxt uchun kechgan to'qnashuvlar otashida yonib ado bo'lgan donishmand malikaning o't ichra o'tgan taqdiri nafasidir. Endi bu ulug' ziyoratgohning ohlari Yaratganga yetib bordi. U yanada kengaydi, restavratsiya qilinib, bizga faxru g'urur baxsh etmoqda. Butun yer yuzidan keladigan sayyohlarga bitmas-tuganmas afsonalar so'zlaypti.

Respublika Ma'naviyat va ma'rifat kengashining kengaytirilgan yig'ilishida o'zbek tilini

Iste'dod

Yuz ming dollarga yoxud vatanparvar rassom e'tiqodi SOTILMAGAN SURAT

Rassomning o'z dunyosi bo'ladi. U ko'pincha o'z tasavvurlari va fantazyalari bilan yashaydi, boshlab qo'yg'an asarini tugatmaguncha yotib-turishiyu, yeb-ichishida halovat bo'lmaydi. Ba'zan ovqatlanishni ham unutib qo'yadi.

Andijonda oddiy dehqon oilasida o'sib-ulg'aygan Jo'ra Asranni hech bir tabiat hodisasi befarq qoldirmas, har bir g'iyohning ifori uning tasavvurida betakror ranglar jilosiga aylanardi. Yosh Jo'ravoy ko'p rassomlarning ijodini o'rgandi, ranglar olamiga boshlagan har bir asar o'zining taqdiri, mohiyati, ko'rinishi bilan uni maftun etdi, qo'lga mo'vqalam olishga undadi. Tabiatdan hayratlanish, uni tinglash va daftar sahilalariga ko'chirish rassomning doimiy mashg'ulotiga aylandi.

Maktabni bitirgach, chizgan suratlarini qo'ltiqlab Toshkentga keldi. Kamoliddin Behzod nomidagi milliy rassomlik va dizayn institutiga hujjat topshirganida uning asarlari yilg'oyi tanlovda yuksak baholandi. Talabalik yillarida mashhur musavvir ijodini o'qib-o'rgandi, ustozlardan saboq oldi. O'qishni tamomlab, ko'p yillar poytaxtda ijod qildi. Nizomiy nomidagi pedagogika universitetida o'z sohasi bo'yicha yoshlarga saboq berdi.

Jo'ra Asran uchun an'anaviy rassomlik hammasidan ustun va suyuqli. Asarning kompozitsion yechimi, portretlardagi psixologik holat, issiq va sovuq ranglarni o'z joyida ishlash, asar ruhiga singdirish chidam bilan ishlashni, erinmaslikni, har bir detalni, har bir shirxini ko'zdan qochirmaslikni talab etadi. Rassom bo'lishni niyat qilgan kishi bu mahoratlarni, albatta, egallashi kerak. Jo'ra Asran uyg'un davri rassomlari, Italiya, Gollandiya, Rossiya, ayniqsa, atqili o'zbek musavvirlari — Chingiz Ahmarov,

Ro'zi Choriyev, Rahim Ahmedov, Bahodir Jalolov, Javlon Umarbekov va boshqa usta san'atkorlarning ijodi bilan yaqindan tanishdi, ulardan ilhom oldi.

Bugun o'z asarlari bilan dunyoga tanilgan iste'dodli rassomlarimiz ko'p. O'zbekiston Badiiy akademiyasi a'zosi Jo'ra Asran ulardan biri. Uning betakror rangtasvir asarlari Avstriya, Vengriya, Ruminiya, Germaniya, Hindiston, AQSH, Fransiya, Italiya, Rossiya singari ko'plab mamlakatlarda o'tkazilgan xalqaro ko'rgazmalarda namoyish etilgan. Toshkent davlat yuridik universiteti zalining devoriga 1996-yilda chizilgan Sohibqiron Amir Temurning mahobatli surati ham musavvir qalamiga mansub.

Rassom vatanimizning boy madaniyati, tarixini muntazam o'qib-o'rgangani bois, ko'pgina asarlarida milliy urf-odatlarimizni qalamga oladi. Uning peyzaj, natyurmort, etyud hamda tarixiy avangard, abstraksiya, xolstga ishlangan grafika va mozaika uslublari, reallik va fantaziya, intuitsiya va yechim aniqligi, fazoviy uyg'unliklar namoyon bo'lgan asarlari ko'pgina chet davlatlarning xususiy kolleksiyalaridan joy olgan.

1998-yilda Samarqandda Imom Buxoriy tavalludining 1225 yilligi, Farg'onada Ahmad Farg'oniyning 1200 yilligi keng nishonlandi. Shu munosabat bilan bu ulug' allomalar siymosi aks ettirilgan asarlarga talov e'lon qilindi, tanliqli musavvir Jo'ra Asranning asarlari Badiiy akademiya tomonidan xalqaro mukofotga loyiq ko'rildi.

Mana, buyuk muhaddis Imom Buxoriyning nuroniy chehrasi. Musavvir bundan o'n ikki asr ilgari yashab o'tgan ulug' allomaning kiyofasini yaratishi uchun Imom Buxoriy yashagan Chelak tumanidagi Xartang qishlog'iga borib, hazrat qabrini ziyorat qildi, o'sha yerda bir muddat yashadi. Allomaning ruhiyatini, hayoti va ijodini o'rgandi, hadislarini sinchiklab o'qidi. Bu borada diniy ulamolalar, tarixchi olimlar bilan ko'p muloqot



qildi. Nihoyat, uzoq izlanishlardan keyin asar tayyor bo'ldi. Rassomning o'ng tomonida muborak Makkai mukarrama va Madinai munavvaraning tasviri, boshqa qismida esa allomaning umr sarhadlari aks etgan.

Jo'ra Asran Germaniyaning Myunxen shahrida bo'lib o'tgan xalqaro ko'rgazmada o'z asarlari bilan qatnashganida muxlislardan biri rassomning "Ona" deb nomlangan portret asarini sotib olmoqchi bo'ladi. Asar ekspertlar tomonidan yuz ming dollarga baholandi. Lekin Jo'ra Asran uni sotishga rozi bo'lmaydi. Shu munosabat bilan ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida u o'zbek millatida Ona, Vatan tuyg'usi har narsadan ustun turishini, bu asarini sotsa, o'zini onasiga, Vatanga xiyonat qiladiganday his etishini aytadi. O'shanda

Jo'ra Asran dunyoning eng vatanparvar rassomi sifatida jahon matbuoti sahilalarida qayd etilgan edi. Uning "Ona" asari hali ham ko'rgazmalarda namoyish qilinaypti.

Jo'ra Asran ko'p yillar mobaynida poytaxtda ijod qildi. Ustaxonasi bo'lmagani bois, avval bir o'rtog'ining Bodomzordagi xonadonida, keyinchalik Qo'lyiq mavzesini kesib o'tadigan Chirchiq daryosi atrofiga qurilgan dala hovlilardan birida, tanishining uyida yashadi, o'zi rejalashtirib qo'yg'an asarlar ustida ishladi.

— Prezidentimiz bir guruh ziyolilar bilan uchrashuvda ijod ahliga, eng avvalo, yaxshi sharoit yaratish, ularni moddiy va ma'naviy qo'llab-quvvatlash davlatimizning diqqat markazida ekanini alohida ta'kidlab o'tgan edi, — deydi

rassom. — Davlatimiz rahbarining ko'ngilni ko'taradigan ana shu so'zlari menga yanada ilhom bag'ishladi.

Yangi O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlar, hayotimizda, jamiyatimizda bo'layotgan o'zgarishlar, yangiliklar, bunyodkorliklar meni yanada baland ruh bilan ijod qilishga undaydi. Bu tarixiy o'zgarishlarni qalamga olsam, dunyoga ko'rsatsam, zamon bilan hamnafas bo'lsam, deymen. Hozir yangi asarlar ustida ishlayapman. Keyingi paytlarda davlatimiz tomonidan barcha ijodkorlar, xususan, rassomlar ijodiga alohida e'tibor, xorij mamlakatlarda ko'rgazmalarini tashkil etishda moddiy ko'mak berilyapti. Bu menga kuch-quvvat baxsh etadi, yanada g'ayrat-shijoat bilan ishlagha undaydi.

Qishloq joylarda yashayotgan yoshlarni ijodga jalb etish, ularni qo'llab-quvvatlash, iqtidorlarini yuzaga chiqarishga ko'maklashish "Besh muhim tashabbus"ning birinchisi hisoblanadi. Jo'ra Asran bu tashabbusni amalga qo'llab-quvvatlaydi, ona yurti — Andijonda o'tlandi. Xonobod shahriga kelib, bir-ikki joyda o'z asarlari ko'rgazmasini o'tkazdi. Shu bilan birga, bu yerda rasm chizish bilan shug'ullanayotgan iqtidorli yoshlarning g'ayrat-shijoatini ko'rib, ularga ustozlik qilishni ko'ngliga tugdi. Bu, albatta, mahalliy rahbarlarni quvontirdi, unga so'lim kentning o'zlashtirilgan adirkalaridan yer ajratildi.

Shunday qilib, Jo'ra Asran Xonobod shahrida yosh rassomlar to'garagini tashkil etdi, bu yerda yigimadan ziyod o'smir yigit-qiz mo'vqalam bilan ishlay boshladilar. Ularning soti tobori oshib boryapti. Rassomning o'zi ham Xonobodda o'ngaqin yangi asar yaratdi. Uning "Bobochinor", "Hayot charxi", "Dugonalar" kabi asarlarida tabiat bilan uyg'unlik, bugungi ko'rni ufuur turadi.

Musavvir ko'p marotaba xalqaro darajada shaxsiy ko'rgazmalar tashkil etdi. Bu ishda unga homiylar ko'mak berdi. O'sha ko'rgazmalarda Jo'ra Asranning ijodi haqida muxlislar, mutaxassislar tomonidan aytilgan, yozib qoldirilgan e'tiroflar oz emas.

Ma'naviyat, ma'rifat xalqimizning azaliy qadriyatlarini hisoblanadi. Hozir qaysi xonadon yoki tashkilotga bormang, devorida, albatta, birorta musavvirning asari bor. Demak, xalqimiz yaxshi san'at asarlarini qadrlaydi, ulardan estetik zavq oladi. Bundan rassom manfaatdor, ham moddiy rag'bat oladi, ham yangi mavzularga qo'l uradi.

Musavvirning "Qo'shqon" nomli asari juda ko'p xorij mamlakatlarida ko'rgazmaga qo'yilgan. Unda egizak nevaralarini ikki qo'lga ko'tarib olgan, farzandlari baxtini ko'rib, nevaralari davrasida shodumon yurgan ayol aks etgan. Shu bilan birga, ayolning chehrasida g'am-tashvish soyasi, o'y-xayollar qarama-qarshiligi ham namoyon. Chunki hayotning, yashashning o'zi baxt, ammo tirikchilikning o'ziga yarasha tashvishlari ham bor. Jo'ra Asran chizayotgan asaridagi har bir jarayon uning mo'vqalidan jilo topib boradi, tasvirlar mukammallashadi, ranglar quyulashadi. Bu ijod olamining davomiyligidir.

Milliy ma'naviyatimiz rivojini tasviriy san'at namunalarisiz tasavvur etib bo'lmaydi. O'zbek rassomlarining keyingi yillarda samarali ijod qilib, yangi yutuqlarni qo'lga kiritayotgani, bu sohaga ko'plab yosh iste'dod egalari kirib kelayotgani uning ravnaqi va istiqbolidan dalolat beradi. Chet ellarda tashkil etiladigan ko'rgazmalardan ko'zda tutilgan maqsad esa o'zbek millatini, buyuk ajdodlarimiz kimga ekanini, har sohada ilg'or bugungi ko'rni fidoyilarni dunyoga tanitishdan iborat. Rassom o'z asarlarida mustaqillik bergan imkoniyatlarni namoyon qilishi, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan bunyodkorliklar va obodonchiliklarni ko'rsata olishi kerak. Ana shu mas'uliyat musavvirni yangi g'oyalari sari undaydi. Jo'ra Asran bugungi kunda yosh rassomlarga ustozlik qilish bilan birga, asarlar yaratish yo'lida tinmay izlanaypti. Ularning har birida yurt nafasi, mustaqillik tafti mujassam.

U hozir o'z asarlari bilan nafaqat yurtimizda, balki jahon muzeylarida ham ko'rgazmalarini tashkil etishga tayyorgarlik ko'rmoqda.

Nurulloh OSTONOV, jurnalist

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DM

Bosh muharrir:

Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi. Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar. Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi. Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "Kolorpak" MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 205.

8848 nusxada bosildi. Obset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2. Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Bahosi kelishilgan narxda.

"Kolorpak" MCHJ bosmaxonasi chop etildi. Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060. Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy. Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Nodir Mahmudov Musahhir: Sherzod Mahmudov Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzillimiz: 100060, Toshkent shahri, Shahrisabz ko'chasi, 85-uy